

## YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Mamanazarov Solijon Sherzodbek o‘g‘li**

A.Navoiy nomli davlat stipendiyasi sohibi(2023-2024-yy)

**Muxammadiyev Jamshid Ilhom o‘g‘li**

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya,  
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabalari

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Harbiy-vatanparvarlikning o‘ziga xos jihatlari haqida ham fikr yuritiladi. Tadqiqotchi olimlarning fikrlari haqida ham atroflicha to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** yosh avlod, vatanparvarlik, harbiy tayyorgarlik, harbiy-vatanparvarlik, salomatlik, valeologiya.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari. Hozirgi vaqtda, O‘zbekistonda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir necha qonun va qarorlar ana shu muammolarni bartaraf etish, yoshlarning jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadidadir va bu borada sezilarli amaliy ishlar ham amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizda bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2018-yilning 23-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining 140-sonli qarori bilan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi kuchga kirdi. Bu Konsepsiya – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Jismoniy jihatdan sog‘lom rivojlanishda esa jismoniy tarbiya, sport va sog‘liqni saqlash tizimini ahamiyati bebahodir. Oxirgi 20 yil mobaynida olimlar tomonidan salomatlik holati uchun qanday miqdoriy va sifatli ko‘rsatkichlarni asos qilib olinish

zarurligi, salomatlikka xos bo'lgan hamma jarayonlarni qamrab oladigan ta'rifni "shakllantirish, salomatlikni kasallik holatidan farqlanishi, uchinchi yoki oraliq holat uchun xos bo'lgan belgilarni ajratish va qanday yo'llar va vositalar" yordamida sog'liqni saqlash va tiklash kabi muammolarni hal etish ustida ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi. Olimlarning fikriga ko'ra, salomatlikning holatiga turli omillarning ta'siri quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan ifodalandi: irsiyat-20%, tashqi muxit ta'siri 20%, turmush tarzi 50%, tibbiy yordam darajasi 10%. Demak, odam salomatligi bu ijtimoiy, tashqi muxit va biologik omillarining bir - biri orasidagi murakkab munosabatlar natijasidir. Bu borada yangi ilmiy yo'nalish valyoologiya Fani vujudga keldi, Valeologiya so'zi yunoncha Valeo so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «salomat bo'lish» deganidir. Bu atama birinchi marotaba 1982-yilda I.I.Brexman tomonidan taklif etilgan. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish jismonan sog'lom va hayot mobaynida faoliyatning barcha turlarini oliy darajada qodir shaxsning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, u tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shaxsning keng dunyoqarashga ega bo'lishini, ma'naviy, ijtimoiy va biologik barkamollikka erishishini, kasalliklarga chalinmaslik xususiyatiga ega bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning rivojlanayotgan organizmga, ijobiy ta'siri zaminida organizmdagi hamma a'zolar, tizimlar va yaxlit organizmning ichki va tashqi muhitlar o'zgarishlariga, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o'zgarishlarga keng miqyosda moslashish xususiyatlarining shakllanishi yotadi. Kam xarakterlik (gipodinamiya) sharoitida voyaga yetayotgan bolalar va o'smirlar organizmining va a'zolarining moslashuv xususiyati qoniqarli darajada bo'lmaydi. Shu sababli ularning organizmi\_tashqi muhitning, ichki muhitning hamda, faoliyatning turli va keskin o'zgarishlariga o'z vaqtida va yetarli darajada moslasha olmaydi. Natijada bolalar organizmida turli xil patologik jarayonlar va kasalliklar kelib chiqadi. Bu hol, ayniqsa, voyaga yetgan yosh ayollar a'zolarining xomiladorlikka xos bo'lgan yuqori va uzluksiz ortib boruvchi faollikni bajarishga moslasha olmasligi oqibatida ko'plab kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnida bunday ayollardan tug'ilgan avlodlarning ham hayoti mobaynidagi moslashuv xususiyatlari cheklangan bo'lishi mumkin. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan ta'lim vazifalari hayotiy muhim, professional sport amaliy harakatlariga o'rgatish va sog'lom hayot tarzi ko'nikmalarini tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi asoslarini o'rganish ham ta'lim vazifalaridan biri hisoblanadi. Amalda mustahkamlangan bilimlar asosida sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishning foydasi va zaruriyatiga ishonch shakllanadi.

Salomatlikni mustahakamlash, tanani chiniqtirish, uning turli kasalliklarga qarshiligini oshirish bu pedagogik jarayonning sog'lomlashtiruvchi vazifalari hisoblanadi. Sog'lomlashtiruvchi vazifalarning muvaffaqiyati jismoniy mashg'ulotlarning sog'lomlashtiruvchi pedagogik prinsiplari talablariga rioya qilishga bog'liqdir. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq muhim masala hal etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Erkayev A "Ma'naviyat- millat nishoni" T-Ma'naviyat-1997
2. Imomnazarov M "Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari"-Sharq-1996
3. Imomnazarov M "Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar"-Sharq-1999
4. Yusupov E "Inson kamolotining ma'naviy asoslari"-Universitet-1998